



YUZ-JAG' SOHASI ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH VA UNING TASHXISLASHDAGI AHAMIYATI

NAVRUZOVA MADINA ORZIJOVNA

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası magistri

AZIMOVA SHAHNOZA SHUHRATOVNA

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası dotsenti

Kirish: So'nggi yillarda bolalar orasida tish-jag' tizimi anomaliya va deformatsiyalarining ko'payib borishi zamonaviy stomatologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Tish-jag' tizimi organizmning yagona va murakkab biomekanik tizimi bo'lib, uning har qanday bo'g'inida yuzaga kelgan patologik o'zgarishlar nafaqat lokal, balki umumiy funksional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Tish qatorlarida bir yoki bir nechta tishlarning yetishmasligi, noto'g'ri joylashuvi yoki patologik tishlovlar okklyuziyaning buzilishiga, chaynash samaradorligining pasayishiga va keyinchalik chakka-pastki jag' bo'g'imida patologik o'zgarishlar rivojlanishiga sabab bo'ladi. Almashinuv tishlov davri (10–13 yosh) tish-jag' tizimi shakllanishining muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda yuzaga kelgan anomaliyalarni erta aniqlash va to'g'ri tashxislash kelgusidagi ortodontik davolash samaradorligini belgilaydi. Shu bois, tish qatorlari anomaliyalarini tashxislashda yuz-jag' sohasi antropometrik ko'rsatkichlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Almashinuv tishlov, tish qatorlari anomaliyasi, yuz-jag' sohasi, antropometriya, ortodontik tashxis.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, stomatologik kasalliklarni erta aniqlash va oldini



olish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, maktab yoshidagi bolalarda tish-jag' tizimi anomaliyalarining yuqori uchrashi saqlanib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tish-jag' anomaliyalari bolalarda nafaqat estetik nuqsonlarga, balki chaynash, nafas olish, nutq va yutish funksiyalarining buzilishiga olib keladi.

Almashinuv tishlov davrida yuz-jag' sohasi morfologik ko'rsatkichlarini antropometrik usullar yordamida baholash orqali anomaliyalarni erta aniqlash va ularning rivojlanish darajasini aniqlash mumkin. Bu esa ortodontik tashxisni aniqlashtirish va individual davolash rejasini tuzishga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Almashinuv tishlov davrida tish qatorlari anomaliyalariga ega bolalarda yuz-jag' sohasi antropometrik ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning tashxislashdagi ahamiyatini baholash.

Tadqiqot vazifalari

- almashinuv tishlov davrida tish qatorlari anomaliyalarining tarqalish darajasini aniqlash;
- tish qatorlari anomaliyalariga ega bolalarda og'iz bo'shlig'i gigiyenik holatini baholash;
- yuz-jag' sohasi antropometrik ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish;
- olingan natijalar asosida antropometrik usullarning diagnostik ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot material va usullari

Tadqiqot 10–13 yoshdagi almashinuv tishlov davrida bo'lgan 102 nafar bolada olib borildi. Barcha ishtirokchilar klinik-stomatologik va antropometrik tekshiruvlardan o'tkazildi. Nazorat guruhi sifatida tish-jag' tizimida anomaliya va deformatsiyalar aniqlanmagan 25 nafar bola tanlab olindi

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

- klinik-stomatologik tekshiruv usullari;



- yuz-jag' sohasi antropometrik o'lchovlari;
- olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullari.

Tadqiqot natijalari va muhokama

O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida tish qatorlari anomaliyalariga ega bolalarda yuz-jag' sohasi antropometrik ko'rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli farqlari aniqlandi. Ayrim o'lchov ko'rsatkichlarining o'zgarishi tish qatorlaridagi deformatsiyalar bilan bevosita bog'liqligi kuzatildi. Bu esa antropometrik tekshiruv usullarining tish-jag' tizimi anomaliyalarini tashxislashdagi muhimligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Almashinuv tishlov davrida tish qatorlari anomaliyalarini aniqlash va baholashda yuz-jag' sohasi antropometrik ko'rsatkichlarini o'rganish muhim diagnostik ahamiyatga ega. Ushbu usullar yordamida anomaliyalarni erta aniqlash, ularning rivojlanish darajasini baholash va samarali ortodontik davolash rejasini ishlab chiqish mumkin. Olingan natijalar amaliy stomatologiya va ortodontiya amaliyotida keng qo'llash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Proffit W.R.,Fields H.W.,Sarver D.M.Contemporary Orthodontics. 6th ed.Elsevier, St. Louis, 2019.
- 2.Graber L.W., Vanarsdall R.L., Vig K.W.L., Huang G.J.Orthodontics: Current Principles and Techniques.Elsevier, 2017.
- 3.Korenev A.S.Ortodontiya.Moskva: GEOTAR-Media, 2009.Bishara S.E.Textbook of Orthodontics.Saunders, Philadelphia, 2001.
- 4.Houston W.J.B., Stephens C.D., Tulley W.J.A Textbook of Orthodontics.Wright, London, 1992.
- 5.World Health Organization.Oral Health Surveys: Basic Methods.WHO, Geneva, 2013.



6. Rakosi T., Jonas I., Graber T.M. Orthodontic Diagnosis. Thieme Medical Publishers, New York, 1993.
7. Moyers R.E. Handbook of Orthodontics. Year Book Medical Publishers, Chicago, 1988.
8. Angle E.H. Classification of Malocclusion. Dental Cosmos, 1899.
9. Saidov A.A., Navruzova M.O. Bolalarda tish-jag' tizimi anomaliyalarini tashxislashning zamonaviy usullari. Buxoro, 2021.